

IXTISOSLASHTIRILGAN MAKTAB-INTERNAT O'QUVCHILARIDA MILLIY VA UMUMINSONIY FAZILATLARNI TARBIYALASHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARINI TADBIQ ETISH YO'LLARI

Usmonova Matluba Nosirovna

O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligining ixtisoslashtirilgan
maktab-internat oliy toifali tarix fani o'qituvchisi, mustaqil tadqiqotchi

Tel: +909713073

@mail: usmonovamatluba10@gmail.com

Аннотация

Jahon taraqqiyotida globallashtirish tobora avj olib borayotgan, shiddatli o'zgarishlar sodir bo'layotgan murakkab zamonda, axloqiy tarbiyada milliy va umuminsoniy fazilatlarning o'rnini o'rganish, tahlil qilish va aniqlash, yosh avlodni tarbiyalash tarixiy zarurat va davr talabidir. Zamonaviy sharoitda milliy va umuminsoniy fazilatlarni chuqur va har tomonlama o'rganish, ularning yosh avlod tarbiyasida tutgan o'rnini va rolini to'g'ri aniqlash, ular o'rtasidagi o'ziga xos bog'lanishlarni, urf-odatlar, marosimlar, qoidalarga bo'lgan munosabatini aniqlash muhim o'rin tutadi. Ushbu maqolada avlodlar o'rtasidagi fikrlar ilgari surilgan.

Kalit so'zlar: Milliy va umuminsoniy fazilatlar, milliy urf-odatlar, oila, mahalla, ahloqiy madaniyat.

Национальные и общечеловеческие идеи, основанные на богатом наследии предков

Аннотация

Сложные времена, когда в мировом развитии ускоряется глобализация, где происходят кардинальные изменения, изучение, анализ и определение места национальных и общечеловеческих качеств в нравственном воспитании, воспитании подрастающего поколения является исторической необходимостью и требованием раз. Глубокое и всестороннее изучение национальных и общечеловеческих качеств в современных условиях, правильное определение их места и роли в воспитании подрастающего



поколения, конкретных связей между ними, обычаев, обрядов, правил имеет важное значение для определения соотношения между ними. В статье выдвигаются представления о национальных и общечеловеческих ценностях, которые передаются по наследству из поколения в поколение.

Ключевые слова: национальные и общечеловеческие качества, национальные традиции, семья, соседство, нравственная культура.

Pedagogical opportunities for cultivating national and universal qualities in students of specialized boarding schools

Annotation

In the complex times, when globalization is accelerating in the world development, where drastic changes are taking place, studying, analyzing and determining the place of national and universal qualities in moral education, educating the young generation is a historical necessity and a demand of the times. Deep and comprehensive study of national and universal qualities in modern conditions, correct determination of their place and role in the education of the young generation, specific connections between them, customs, rituals, rules it is important to determine the relationship between them. In this article, ideas about national and universal values that are inherited from generation to generation are put forward.

Keywords: National and universal human qualities, national traditions, family, neighborhood, moral culture

Ixtisoslashtirilgan maktab-internatlar o'quvchilarini ulug' ajdodlarimizning munosib vorislari ekanliklarini anglaydigan, ayni vaqtda, jahon va zamonning umumbashariy yutuqlarini egallash ruhida tarbiyalash bugungi zamon talabidir. Davlat rahbari Sh.M.Mirziyoyev: "Maktabgacha va maktab ta'limi, o'rta maxsus, oliy ta'lim, mahalla va boshqa tuzilmalar monitoringini olib boorish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish" vazifalarini amalga oshirishni maqsad qilib belgiladilar. BMTning "Yoshlar strategiyasi"da ta'kidlanganidek: "Yoshlar siymosida eng qimmatli va o'ta muhim resurslar mujassam topgan bo'lib, unga har qancha



investitsiya kiritsa arziydi, chunki bu sarmoyalar bir necha barobar ziyoda bo'lib qaytadi"[1, 262,281-b] Pedagogik-tajriba davomida o'quvchilarni milliy va umuminsoniy fazilatli qilib tarbiyalashning yaxlit bir tizimini, modelini ishlab chiqishni o'z oldimizga maqsad qilib olganmiz. Bunda "Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi"ning ma'naviy yo'nalishlari va bugungi shiddatli, globallashuv jarayonlarida yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etish yo'llari hisobga olingan.

Milliy fazilatlardan o'zi tug'ilib o'sgan Ona yurtga ehtirom, unga sadoqatlilik, kamtarlik, mardlik, ota-onaga va kattalarga doim hurmat ko'rsatish, intizomlilik, yordamga muhtojlarga shafqatli bo'lish kabi fazilatlar, umuminsoniy fazilatlardan adolat, insonparvarlik, halollik, tinchlikni qadrlash kabi fazilatlarni ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarida tarbiyalash texnologiyasini yaratishni belgiladik.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyasidagi fundamental g'oya tushuntirishdan tushunishga, monologdan dialogga, nazoratdan rivojlanishga, boshqarishdan o'zini-o'zi boshqarishga o'tishdan iborat. Pedagog asosiy urg'uni fanni bilishga emas, aksincha, muloqotga o'zaro bir-birini tushunishga harakat qilib, o'quvchini, ijod qilishi uchun, uni ozod qilishga qaratishi kerak. Ijod va izlanish o'quvchining milliy va umuminsoniy fazilatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi muhitidagi borlig'ining asosi bo'lmog'i lozim. Ammo o'quvchining jismoniy, intellektual va ruhiy holati mustaqil ravishda ta'limdagi ijodiy izlanish talab qiladigan topshiriqlarni bajarishga va hayotiy muammolarni yechishga yetarli emas. Shuning uchun unga pedagogik qo'llab-quvvatlash va yordam kerak bo'ladi.

Milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim-tarbiya texnologiyasi o'z ichiga quyidagilarni ham qamrab oladi: [2, 28-b]

- o'quvchiga insonparvarlik yondashuvi;
- hamkorlik texnologiyasi;
- o'yin texnologiyasi;
- kommunikativ ta'lim texnologiyasi;
- erkin tarbiya texnologiyasi;
- bolani qo'llab-quvvatlash texnologiyasi.



Ta'lim-tarbiya jarayonida Milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan talablar - ta'lim-tarbiya texnologiyasi bo'yicha mashg'ulotlar tizimini yaratish orqali pedagoglarning metodik ta'limi maqsadlari, mashg'ulot materialining mazmuni, rahbar va pedagoglar munosabatining shakllari ta'limning bosh mazmuniga xizmat qiladigan, ya'ni, pedagogni metodik jarayonning faol subyektiga aylantiradigan qilib tashkil etiladi. Bu subyekt maqsadlarini belgilashda, mazmunini yaratishda ishtirok etadi. Insonparvarlik motivi asosida milliy va umuminsoniy sifatleri dolzarb bo'ladiki, unga muvofiq qiziqish, his-hayajon, milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan yondashuv imkoni yaratiladi; ya'ni tarbiyalanuvchi va pedagogga noyob shaxs sifatida munosabat bildirish kabi. Shu bilan birga, metodik faoliyatda pedagogning o'zini ko'rsata bilishi, o'z manfaatini, refleksiyasini, shaxsiy pedagogik holatini individual-mualliflik-pedagogik (metodik va didaktik) tizimni yaratishi kuchayib boradi. anglatadi."

Milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasi mazmuni

- o'quvchi bilan hamkorlik munosabati;
- o'quvchida ijobiy emotsional qoniqish hosil qilish;
- maktab ta'limini muvaffaqiyatli amalga oshirish;
- muloqot va mehnat qilish va yutuqqa erishishga ishontirish;
- o'ziga va o'rtoqlariga yordam berish ko'nikmasi;
- o'quvchi motivlarini aniqlash;
- o'quvchi shaxsidagi ijodiy imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish va rivojlantirishning amaliy yechimlarini aniqlash va amalga oshirish;
- o'quv materialini didaktik jihatdan takomillashtirish va qayta ishlab chiqish;
- darslarda ilg'or pedagogik hamda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanishni uyg'unlashtirish.

Milliy va umuminsoniy fazilatli o'quvchini tarbiyalashda keng bilim alohida o'rin tutadi. "Bilim piramida"sini shu orqali hosil qilar ekanmiz, barcha dars shakllarida o'quvchilarning milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashdagi o'z hatti-harakatlari oqibatlarini anglay olishi, idrok etish metodlaridan, multimedia vositalarining tarixiy shaxslar haqida mustaqil fikr yurita olishi, uning jasoratlari, avlodlarimizga qoldirgan merosi haqida o'z tushunchalarini ayta olish kabi



usullardan foydalanish mumkin. Bu o'rinda barcha shakldagi darslarda ham o'rganilayotgan mavzu mohiyatini ochib berish uchun asos qilib olingan milliy va umuminsoniy fazilat uchun negiz qilib olish kerak. Shu muhim fikr orqali uning qimmatini belgilanadi. Masalan: "Jaloliddin Manguberdi – mohir sarkarda" mavzuida Vatanparvarlik, vatan qadri, mardlik, jasorat kabi fazilatlarni o'quvchi teran anglay olishi lozim. Buyuk mutafakkir Abu Ali ibn Sino uchun hayotdagi eng muhim umuminsoniy fazilat bu ruhiy va jismoniy sog'lomlik, Imom al-Buxoriy, Iso at-Termiziy uchun iymon, e'tiqod, mehr-oqibat, muruvvat, ruh pokligi, Zahiriddin Muhammad Bobur nazdida vatanparvarlik, jadid namoyondalari A. Avloniy, Behbudiy, H. Hamza, A. Fitrat, A. Qodiriy, A. Chulponlar uchun milliy g'urur, o'zlikni anlash, haqiqatparvarlik, Muqimiy, Furqat, Zavqiy uchun ma'rifatparvarlik, Vatan ishqisi asosiy milliy va umuminsoniy fazilat sifatida namoyon bo'ladi. O'quvchi turli innavatsion vositalar yordamida mavzu mohiyatida olg'a surilgan asosiy g'oya negizida qator milliy qadriyatlar bilan tanishish jarayonida ularda halqimiz qadimdan ulug'lab kelgan milliy va umuminsoniy fazilatlar shakllanib boradi. "Tarbiya" va "Ona tili va o'qish savodxonligi" darsliklarida chop etilgan ko'plab hikoya, rivoyatlar orqali o'zbek halqining o'ziga xos insonparvarlik, qanoatlilik va saxovatlilik fazilatlari mohiyatini o'quvchi ongiga singdirishda ularning mazmunini ochib berishda bir qancha milliy fazilatlarga misollar keltirilgan. Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchisi turli usullar vositasida mavzularda olg'a surilgan asosiy g'oya negizida xalqimiz qadimdan ulug'lab kelayotgan insoniy-milliy fazilatlar shakllanib boradi. Masalan: "Tarbiya" darsligidagi mavzularida yoki "Vatanparvarlik asoslari" kabi maxsus fanlar doirasida o'zbek xalqining o'ziga xos insonparvarligi, qanoatliligi, vatanparvarlik kabi ko'plab fazilatlarni o'quvchilar ongiga singdirishda foydalanilgan. Milliy fazilatlarning mazmunini ochib berishda quyidagi metodlardan unumli foydalanishni tavsiya:

- muammoli savollar,
- Keys-stadi,
- Buyuk shaxslarga qisqacha ta'rif ("**definition**" **metodi**) bunda, har bir buyuk allomalarimizga o'quvchilarning yosh va bilish qobiliyatlariga muvofiq ta'rif bera olishlari lozim. *Birinchidan*, buyuk shaxsning kimligiga qisqachi ta'rif berish lozim – Jaloliddin Manguberdi o'rta asrlarning mohir sarkardasi, qisqa umri davomida



Vatanini mo'g'ullardan himoya qilgan (*matonatlilik fazilati*), Xorazmshohlarning so'nggi sultoni, Jaloliddin o'ta qat'iyatli, nihoyatda irodali, murakkab vaziyatlarda, taqdirning qaltis sinovlarida o'zini yo'qotib qo'ymaydigan, favqulodda mard va botir sarkarda.[3, 23-b]

- *Ikkinchidan*, uning tarjimai holi sanalar kema-ketligi asosida ta'rif beriladi.
- *Uchinchidan*, g'alabali janglari, harbiy san'at tarixi, mardona kurashlari haqida gapirib berishi lozim (*milliy g'urur, iftixor kabi fazilatlar*).
- *To'rtinchidan*, bugungi kunda buyuk ajdodimizga bo'layotgan munosabat, uning xotirasini abadiylashtirish masalalari haqida to'xtalib o'tish kerak.
- *Beshinchidan*, milliy ruh bilan boyitgan holda o'quvchi chiqargan xulosasini aytib berishi lozim. Har bir tarixiy shaxs timsoliga, uning ko'rsatgan jasoratiga tahlilni amalga oshirish orqali o'quvchilar qalbida tarixiy tafakkurni kengroq shakllantirishga muvasssar bo'lamiz.

- kichik matnga sarlavha topish,
- har bir kichik matnda qanday g'oya ilgari surilayotgani fikrlab so'zlab bersa, o'quvchi milliy va umuminsoniy fazilatli bo'lgan holda tarbiyalanib boradi.

“Jonli tarix” metodi - bunda darsning refleksiya qismida foydalanish maqsadga muvofiq. Tarixiy shaxslarni talqin qilib, tarixni jonlantirishlari uchun o'quvchilarga tarixiy shaxslarning ismlari yozilgan kartochkalarni olishadi va ularning hayot yo'llarini jonlantirishga kirishadi. Bu metod rolli o'yinli metodlardan farq qiladi. Uchinchi shaxs tilidan yozilgan darslikdagi matnlarni jonlantirishda o'quvchi “men” obrazi orqali gavdalanitiriladi. Ushbu metodda o'quvchining tarixiy tasavvuri, tarixiy shaxslardan ibrat olishi mumkin bo'lgan milliy va umuminsoniy fazilatlarni o'zida shakllantirishga katta yordam beradi.

“10 soniya” metodi – bu metod tezkorlik bilan bajariladigan metodlar qatoriga kiradi. O'qituvchi tomonidan doskaga guruhlardan bittadan o'quvchilar chiqadi. 10 soniya ichida

Shuningdek, o'quvchilarda “Vatanparvarlik asoslari” fani doirasida qo'yidagi metodlarni tavsiya etaman:

“Buyuk sarkarda Zahiriddin Muhammad Bobur” mavzusi doirasida

“Qora quti” metodi orqali o'quvchilar diqqatini jalb qilish maqsadida yangi mavzu boshlanishidan oldin keys savol tashlanadi ya'ni “Ushbu qutida o'quvchilar buyuk bobokolonimiz tomonidan Vatan soginchi deb nomlangan narsalar bor. (Uzum va



qovun-manba “Boburnoma”)” o‘quvchilar o‘z taxminlarni aytishadi va bu quti dars oxirida ochiladi. Shu orqali o‘quvchilar diqqatini mavzuga qaratib, milliy va umuminsoniy fazilatlarni shakllantirishda o‘quvchilarni axborotni tahlil qila olishi, axborot xurujlaridan o‘zini himoya qila olishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bunda **“Eng yaxshi muxbir”**- metodidan foydalaniladi. Bu metoddan asosan darsning tashkiliy qismida foydalansak maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilar media axborot orqali eshitgan yangiliklarini to‘plab darsning kirish qismida aytib beradilar. O‘qituvchi kimning axboroti serqirra va qiziqarli bo‘lsa o‘sha o‘quvchi “eng yaxshi muxbir” nominatsiyasini oladi. Maxsus belgi o‘quvchining bo‘yniga taqib qo‘yiladi va har bir darsda qo‘llanilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘tilgan mavzuni takrorlashda **“Davrlar stuli” metodidan** foydalaniladi-bunda ekranda davlatimizning uch ming yillik tarixi aks etgan tarixiy xarita aks etadi va o‘quvchilar ularni bittadan chiqib, davrlar stuliga o‘tirib qaysi davr ekanligini topishlari kerak. Guruh a‘zolari bilan birgalikda kontur xaritada o‘zlariga tushgan tarixiy davrlarni chizib, voqealar xronologiyasini topishlari kerak.

Interaktiv o‘yinlar metodlaridan darsning istalgan qismida foydalanish mumkin. A. Distvergning shunday gapi bor: “O‘n xil turli-tuman predmetni bir tomondan qarab o‘rgatgandan ko‘ra, birgina predmetga o‘nta tomondan qarab o‘rgatishning foydasi ko‘proq.” [3, 25-b] Bu o‘yinlarning boshqa o‘yinlardan farqlanib turadigan jihati ularning qat’iy qonunlari bor. Ular treningli o‘yinlar deb nomlanadi. Bularga:

- ✚ stol o‘yinlari (o‘yla izla top, zakovat, mo‘jizalar maydoni, tafakkur sinovlari, lotto, domino va boshqalar)
- ✚ ko‘rsatilgan algoritmlar asosidagi o‘yinlar (boshqotirmalar, qayta tiklash o‘yinlari, rebuslar, krassvordlar)
- ✚ tasavvurga asoslangan rolli o‘yinlar (jo‘natilmagan depesha, iegroliflar bahsi, men va sen, xazinani top)

Yangi mavzu bayonida **“Vediotopishmoq metodi”**dan foydalanib, ijtimoiy hayotimizga oid vedio taqdim etiladi. O‘quvchilar undan olgan xulosalarini bayon etishlari orqali milliy fazilatlarni tarbiyalash mumkin. O‘quvchilarning milliy va umuminsoniy fazilatlarini o‘stirishda munozara, debat, refleksiya, FSMU, SWOT-tahlil, rolli o‘yinlar kabi metodlar katta tajribalar jarayonida isbotlandi.

Shuningdek milliy va umuminsoniy fazilatlarni egallanishi bu ma’naviy ehtiyoj bo‘lib, o‘qituvchi uning mohiyatini ochib berishda avvalo milliy fazilatlarga



murojaat etadi. Misol uchun mardlik, jasorat, adolatlik, ishbilarmonlik kabi fazilatlarda Amir Temur va Temuriylar davri tarixini, insonparvarlik, qanoat, saxovat, imon, e'tiqodning asosini diniy ta'limot "Qur'on", "Hadis", tasavvuf adabiyotini, umuminsoniy fazilatlar jumlasiga asosiy mezon bo'lgan ilmlilik, tenglik, do'stlik, birodarlik – Sharq allomalarining Al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Ibn Sino, Abu Rayhon Beruniy va boshqalarning boy merosiga, sharq halqlariga xos milliy g'urur, o'zlikni anglashdek milliy fazilatlarga – Alisher Navoiy, Zahiriddin Bobur, Umar Hayyom kabi adiblarning madaniy merosi manabalarga tayangan holda o'rgatilishi lozim. Milliy va umuminsoniy kompetensiyalarini o'quvchilar ongiga singdirish orqali qo'yidagilarni egallab oladilar:

✚ bu fazilatlar komil insonlarga xos bo'lib, uzoq tarixiy taraqqiyot bosqichiga ega ekanligini biladilar;

✚ milliy va umuminsoniy fazilatlar jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy taraqqiyotga ta'sirini anglay oladilar;

✚ buyuk ajdodlarimiz ya'ni Sharq xalqlari hamma vaqt har qanday vaziyatda ham milliy fazilatlarni uchun intilganligini, kurashganligi va targ'ib qilganligini bilishlari;

✚ milliy g'urning asosi ekanligini anglay olishlari;

✚ olimlar, fozillar, allomalar, shoirlarning ijod va hayot yo'lidagi asosiy g'oya sifatida targ'ib qilinayotgan eng muhim milliy fazilat ekanligini bilib oladilar.

Eng muhimi ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarida insonparvarlik, xalqimizning asrlar davomida yaratilib qoldirgan milliy fazilatlarga hurmat, mehr-oqibat hissi oshadi. Bunday milliy fazilatlarning oshishi o'quvchilar bilan yakka va jamoa tartibida og'zaki suhbatlar uyushtirish, yozma so'rovlar o'tkazish, interaktiv o'yinlar, innovatsion texnologiyalar yordamida o'quvchilar faoliyatini kuzatish orqali aniqlanadi. Dars mobaynida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda tushunchalar tahlilda o'rganiladigan mavzu hajmi belgilanadi, didaktik maqsad, kompetensiya va vazifalar aniqlanadi, tarbiyalash lozim bo'lgan milliy va umuminsoniy fazilatlarning asosiy qirralari belgilanib olinadi, jamoa yoki yakka holda mustaqil o'rganish, tahlil etish uchun zarur bo'lgan milliy, umuminsoniy fazilatlarga ajratiladi, o'quvchilar ongiga singdirilishi lozim bo'lgan materialni fanlararo, mavzulararo aloqasi aniqlanadi. Har bir mavzudagi tarixiy davrning ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy hayoti, diniy va dunyoviy madaniyatining rivoji, xalq



amaliy san'ati, me'morchiligi, hunarmandchiligi, o'sha davr jahon madaniyat taraqqiyotiga qo'shgan hissasi, boy madaniy merosi, Hadis ilmi taraqqiyoti, adabiyot maydonidagi muvaffaqiyatlar va ularda olg'a surilgan axloqiy masalalar, hattotlik, miniatyura milliy musiqa san'ati va olg'a surilgan milliy fazilatlar mushtarakligi, ularning bugungi kundagi ahamiyati ilmiy, tarixiy, adabiy manbalar yordamida tahlil etiladi.

Milliy fazilat mohiyati o'quvchi idroki, tafakkuri, tasavvuri, amaliyotga tadbiqu, analiz, sintez asosida o'zlashtiriladi. Bu jarayon o'quvchi va o'qituvchidan "Blum taksomaniya"siga muvofiq mantiqiy va ruhiy tahlil qilishni taqazo etadi. Ayniqsa ijtimoiy-gumanitar fanlarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni o'quvchilarning qiziqishi, qobiliyati, kayfiyati, fikri, bilim saviyasi va yosh xususiyatlariga mos ilmiy ilmiy bilim va milliy fazilatlar mezonlari ostida singdiriladi. Ta'limning o'rta bosqichida eng oddiy milliy fazilatlar: salomlashish, kattalarga hurmat, ovqatlanish odobi, tug'ilib o'sgan yerga muhabbat hissi, mehnatsevarlik tuyg'usi, Sharq mutafakkirlarining boy merosi, milliy o'yinlar asosida ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Ixtisoslashtirilgan maktab-internat yuqori sinflari esa mantiqiy, tanqidiy fikrlash orqali milliy va umuminsoniy fazilatlarning rivojlanish jarayoni, ilm-fan, adabiyot, san'at, xalq amaliy san'ati o'zbek xalqining milliy g'ururini himoya qilgan va xalqni shunga da'vat eta olgan buyuk ajdodlarimiz ilgari surgan g'oya ilmiy-tarixiy ma'lumotlar orqali o'quvchi ongiga singdiriladi. Bunday tahlil o'quvchini ma'naviy meros haqida chuqur bilim olishga, ish va so'z birligini ta'minlashga, ajdodlar merosini mantiqiy izchillik bilan o'rganish va , har bir tarixiy jarayonlardan saboq olib, o'zlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalar orqali millat, xalq, Vatan, ajdodlar oldidagi burch, vijdon, g'urur hissining shakllanishiga samarali ta'sir etadi. [4, 210-b]

O'quv mashg'ulotlari jarayonida milliy va umuminsoniy fazilatlarning tub mohiyati dars maqsadi bilan bir qatorda pedagogik kompetensiyalar bilan birgalikda yaxlitlikda amalga oshiriladi. Bu jarayonni amalga oshirishda darsning didaktik va tarbiyaviy maaqsadi aniqlanadi, qanday ta'limiy va tarbiyaviy tushunchalar, nazariy bilim berishga e'tibor berish lozim. O'qituvchi va o'quvchi faoliyati faoliyatining yo'nalishlari belgilanib olinadi, darslik materialini o'rganish bosqichlari, hajmi, vaqti belgilanadi – dars jarayonida qo'llaniladigan usullar: darslik bilan ishlash, mustaqil og'zaki va yozma ishlarni tashkil etish, innavatsion pedagogik



texnologiyalar, muammoli vaziyatlar, rolli didaktik o'yinlardan foydalanish va boshqa ta'limiy, tarbiyaviy ishlar tizimi tanlanadi.

O'quvchilarda milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalash modelini yaratishda qator pedagogik shartlarga amal qilish talab etiladi: Ya'ni,

- O'qituvchining madaniyat darajasi, ilmiy-ijodiy mehnati
- Ta'lim tarbiyaning turli shakllari, usullari va vositalarini masalan, ma'ruza, suhbat, hikoya, AKT vositalari, munozarali vaziyatlarni yaratish, qiyosiy, izohli tahlil, ma'rifiy manbalar ustida mustaqil ishlash, kichik hikoyalar yozish, rolli o'yinlar, xalq pedagogikasi namunalari, badiiy san'at, sinfdan tashqari tadbirlar, tarixiy obidalar va h.k.

- O'quvchi o'zlashtirigan bilim, ko'nikma va malakalari ustidan doimiy nazorat va o'z-o'zini nazorat qilishga e'tibor;

- ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarining bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish; "Besh tashabbus" doirasidan tashqari qiziqarli kecha, konferensiya, munozara, uchrashuvlar, tarbiyaviy tadbirlar uyushtirish, tarixiy obidalar, ma'rifiy muassasalar, "Ma'naviyat marshruti" orqali tarixiy shaharlar, ziyoratgohlarga sayohatlarni tashkil etish, milliy fazilatlar mohiyatini ochib beruvchi turli ko'rik-tanlovlar tashkil etish, allomalarimiz yaratgan boy meroslar, tarixiy, badiiy asarlar orqali kichik teatr sahna asarlarini yaratish, ularni muhokama qilish, davra suhbatlarini o'tkazishga, o'zbek mintaletiti doirasidagi ijobiy fazilatlarga alohida e'tibor beriladi,

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarida milliy va umuminsoniy fazilatlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari ishlar muhim ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari ishlar doirasida ijtimoiy hayot bilan faol aloqada bo'lmagan o'quvchilarga albatta pedagoglar, tarbiyachilari tomonidan ertalabki saflanish tadbirlari, ovqatlanish yoki sayohatlarga borish jaryonidan tortib, to'garaklarni tashkil etish, ziyoratgohlar, muzeylarga borishgacha bo'lgan jarayon milliy ruhda shakllantirish lozim. Shu nuqtai nazardan biz sinfdan tashqari ishlar jarayonida xalqimizning boy madaniy merosi vositasida yuqori ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari milliy va umuminsoniy qadriyatlarni tarbiyalashining milliy va umummadaniy kompetensiyasini samarali yaratishda quyidagilarga asosiy negiz sifatida tayandik:

- + ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil etishga yangicha metodologik yondashuv;
- + falsafa, pedagogika, etnografiya, tarix, estetika, psixologiya, fanlariga hozirgi



zamon talabi;

✚ jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishi, jahon kolloboratsiya jarayonida milliy va umuminsoniy qadriyatlarga sodiqlikni kuchaytirishga erishish;

✚ uzluksiz ta'lim tizimini milliylashtirish, insonparvarlashtirish, ta'lim-tarbiya mazmuni, shakl va usullarini yangicha talablar (sifatli ta'lim, kreativlik, tanqidiy tahlil, mantiqiy fikrlash) asosida takomillashtirish va amaliy ahamiyatini kuchaytirish.

Milliy qadriyatlar asosida uyushtiriladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarning mazmuni, shakl va usullari samaradorligi uning xarakterli xususiyatlarini aniqlab belgilab olish bilan bog'liq.

Sinfdan tashqari ishlarda quyidagilarni misol qilishimiz mumkin:

✚ **“Ma’naviyat – milliylikda” nomli etnik urf-odat va an’analar saylini** amalda tadbiq etish metodlari

Bunda o'quvchilar o'z viloyatlarining milliy taomlari orqali dasturxon bezatishlari, etnik urf-odatlarini milliy kiyimlarini kiygan holda ko'rsatishlari lozim bo'ladi. Tadbir shartlari quyidagicha:

1. Milliy taomlar uchun
2. Milliy liboslar uchun
3. Etnik urf-odatlarning aks etganligi
4. Shu mahalliy hududda yetishib chiqqan tarixiy shaxslarning ibratli gaplaridan iborat sahna ko'rinish
5. Zamon bilan hamnafasligiga alohida e'tibor qaratiladi.

Ushbu sinfdan tashqarida olib borilgan tadbir o'z viloyatidan uzoqda ta'lim olayotgan maktab-internat o'quvchilari uchun vatanparvarlikni, urf-odatlar, milliy taom va liboslar haqidagi tasavvurlarini yanada kengaytiradi. (O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari o'rtasida amalga oshirilgan).

Ma'naviyat oyligi (“Temurbeklar maktabi”) doirasida ko'hna tarixga boy xalqimizning ziyoratgohlari, madaniyat maskanlariga, buyuk shaxslarning tavallud kunlarining yubileylar sifatida nishonlanishi, buyuk ajdodlarimiz merosi chuqur o'rgatuvchi “Temur tuzuklari bilimdoni”, “Zukko kitobxon”, “Yosh tarixchilar uyushmasi” kabi ko'rik-tanlovlarining bo'lishi milliy o'zlikni anglashga qaratilgan. Chunki, mustaqil hayot ostonasida turgan ixtisoslashtirilgan maktab-internat



o'quvchilari o'zlarini qiziqtirgan baxt, go'zallik, axloq, muhabbat, milliy va umuminsoniy fazilatlar, shaxs ideali va shu kabi masalalarga yuqorida keltirilgan metodlar orqali yetarlicha javob topadilar. Ko'rik-tanlov g'oliblari albatta rag'batlantiriladi. "Tarix fani a'lochisi", "Bilimdon tarixchi" kabi ko'krak nishonlari, tarixiy shaxslar nomi bilan ataladigan stipendiyalar joriy etilsa yanada maqsadga muvofiq bo'ladi.

Ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilarining milliy va umuminsoniy qadriyatlarini tarbiyalashga yuqori sinf yo'naltirilgan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarning asosiy xususiyati, u o'quvchining kundalik hayotining tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lishidir. O'quvchi o'quv ishlarining davomi sifatida sinfdan va maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda bevosita ishtirok etadi, turli mazmundagi ma'ruzalar, suhbatlar, savol-javoblarda qatnashadi, tinglaydi, o'z ma'naviy saviyasini boyitib boradi. Ikkinchi xususiyati, u ta'lim jarayonida bilim, malaka va ko'nikmalarni mustahkamlash, qo'shimcha ma'lumotlar bilan boyitish, o'quvchining ma'naviy merosiga qiziqishini o'stirish maqsadida tashkil etiladi. U ta'lim jarayonida olinadigan bilimni takrorlamaydi, aksincha o'quvchining qiziqishi, mayli, intilishi, tarbiyaviy ehtiyoji asosida yangi mazmun, shakl va usullar bilan uyushtiriladi. Har qanday tarbiyaviy tadbir qiziqarli shaklni, o'ziga xos belgilarni, uy-kechinmalarni, tarbiyaviy xarakterni, ijodiy mehnatni talab etadi. Buning asosiy sabablarini quyidagicha izohlash mumkin:

- a) ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari bilan tashkil etilayotgan tarbiyaviy tadbirlar muhim sanalarga bag'ishlanadi yoki ma'lum maqsad bilan aniq belgilangan kunda o'tkaziladi;
- b) ixtisoslashtirilgan maktab-internat o'quvchilari o'rtasida o'tkaziladigan sinfdan tashqari tarbiyaviy tadbirlarining bir xil shaklidan doimiy foydalanish mumkin emas. Chunki uni qayta-qayta namoyish etish o'quvchini zeriktiradi, ko'ngliga uradi. Masalan, A.Navoiy tavalludi munosabati bilan adabiy-badiiy kecha, konferensiya yoki g'azalxonlik musobaqasi faqat alloma shoir tavallud topgan oyi mobaynida o'tkaziladi.
- v) Har qanday tarbiyaviy tadbir ixtiyoriylik, qiziqish, ehtiyoj asosida o'tkaziladi. Xulosa shuki, bugungi kunda ta'lim muassasalarida o'qituvchi va o'quvchilarning nazariy va amaliy tayyorgarligiga alohida ahamiyat berilib, milliy va umuminsoniy fazilatlarini tarbiyalashga qaratilgan pedagogik shart-sharoitlar yaratilgan.



Vatanparvarlik, intizomlilik, halollik, ota-onani va kattalarni hurmat qilish, insonparvarlik, tinchliksevarlik kabi milliy va umuminsoniy fazilatlar va ularning mohiyati asosida o'quvchilarni tarbiyalashga oid o'qituvchilarga tavsiya va metodlar berilgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Mirziyoev Sh.M. «Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi»-2022-yil 10-yanvar PF-60./www.lex.uz
2. Tarbiyachi va pedagoglar uchun qo'llanma. Prezident ta'lim muasasasalari agentligi – T.: 2022. 66 bet, 17-b
3. Shihobiddin ibn Ahmad an-Nasaviy „Siyrat as-sulton Jalol ad-Din Mengburni“- Buniyatov tahriri ostida “Sharq yozma yodgorliklari”1996 yil Moskva; 23-bet
4. Musurmonova O. Oila ma'naviyati - milliy g'urur. –T.: O'qituvchi, 1999. 200 bet, 23-b